ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Nursulton Zamon o‘g‘li Shayxislamov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, dekan o‘rinbosari
nursultonshayxislamov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llashning samaradorligi va ahamiyati tahlil qilinadi. O‘quvchilarning ona tili bo‘yicha savodxonligini oshirish va ularni ijodiy fikrlashga jalb qilish uchun interfaol metodlar, guruhli ish shakllari, ijodiy yondashuvlar va amaliy mashqlar tizimi muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishda o‘qituvchining ijodiy yondashuvining ahamiyatini ta’kidlanadi. Maqolada “Intervyu usuli”, “Charxpalak usuli” va “Tipografiya” kabi innovatsion yondashuvlardan foydalanish bo‘yicha amaliy misollar keltirilgan va ularning o‘quv jarayoniga tatbiq etilishining samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol o‘yin, intervyu usuli, charxpalak usuli, tipografiya, ona tili, zamonaviy ta’lim, interfaol usullar, ijodiy yondashuv, savodxonlik.

Ona tilimizga bo‘lgan hurmat va muhabbat bolaligimizdan boshlab, onamizning oq suti bilan qalbimizga singib, allaning so‘zlari va ilk muallimlarimiz o‘rgatgan alifbo timsolida ruhimizga jo bo‘ladi. Tilimiz nafaqat savod chiqarib kitob o‘qishimiz, balki boshqalar bilan muloqot qilishimiz, o‘z xatti-harakatlarimizni ongli boshqarishimiz va turli axborotlarni bilib, dunyoqarashimizni kengaytirishimizda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon bilimlarimizni boyitib, kasbiy mahoratimizni shakllantiradi va jamiyatda o‘z o‘rnimizni topishimizga yordam beradi.

Shuning uchun zamonaviy ta’lim jarayonida ona tilini o‘rgatish faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmasligi, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. O‘quvchilarni savodli va chiroyli yozishga, matn tuzishga o‘rgatish uchun ijodiy yondashuv va interfaol metodlardan foydalanish zaruratga aylanadi. Guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilar nafaqat birgalikda ijod qilish, balki boshqalar fikrini tinglash va o‘z qarashlarini dalillar bilan asoslashga o‘rganadilar. Bu jarayon darslarda faollikni

oshirib, loqayd o‘quvchilarni ham ijodiy fikrlashga jalb qilishga xizmat qiladi.

Ona tili ta’limida qo‘llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar savodxonlikni oshirish va o‘quvchilarning yozuvdagi xatolarini bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etadi [1; 2]. Ushbu jarayon o‘qituvchidan nafaqat yuksak mahoratni, balki ijodkorlikni ham talab qiladi. Shu sababli ona tili darslarini samarali tashkil etish bugungi ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ona tili ta’limida zamonaviy metodlardan foydalanish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bu boradagi yondashuvlar ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, til ta’limida interfaol usullarni qo‘llash masalalari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi [5]. G.T.Alimova til o‘rgatishda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish orqali dars jarayonida ko‘proq natija olish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, guruhli ish shakllari o‘quvchilarni o‘z fikrlarini aniq va asosli ifoda etishga undaydi [3]. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning mustaqil matn tuzishga o‘rgatilishi uchun maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqilishi zarurligi alohida qayd etilgan. D.R.Shabbazova esa, ona tili ta’limida kreativ yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning lingvistik va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. U o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarni savodxonlikka o‘rgatishda multimodal resurslardan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatib beradi [4]. Interfaol metodlar haqida batafsil ma’lumot berilgan boshqa bir tadqiqotda, ijodiy ish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun dialogik metodlardan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatilgan. Bu yondashuv, ayniqsa, o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda samarali bo‘lishi qayd etiladi [6]. Ona tili savodxonligini oshirish borasida xorijiy tajribalar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, J. Dyuarning “Tajriba orqali ta’lim” g‘oyasi asosida ishlab chiqilgan metodlar o‘quvchilarni o‘rgatishda tajriba va amaliyotni uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Bu g‘oya o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishda ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda [7].

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, ona tili darslarida zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, savodxonlikni oshirish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar va amaliy tajribalar ona tili ta’limini takomillashtirish uchun ilmiy asos va metodologik yo‘nalish beradi.

Interfaol atamasi inglizcha **interact** - o‘zaro ta’sirlashish (yoki **interaction** – ta’sir) so‘zidan olingan bo‘lib, biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro muomalada, o‘zaro bahs-munozara, debat usulida, fikrlashish asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish

ma’nosini anglatadi. Interfaol metod ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limining asosiy me’zonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materiallarini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Quyidagilarni interfaol metodlarga misol qilsak bo‘ladi:

1. Aqliy hujum	2. Debat	3. Fikrtalash	4. Ijodiy ish
5. Sahnalashtirish		6. Xayoliy sayohat	
7. Ko‘ngilga yoqqan she’r		8. “Hammasini bilgim keladi”	

Quyida o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga va yozma nutqini o‘stirishga xizmat qiladigan ayrim interfaol usullardan misollar keltiriladi.

“Intervyu usuli” yordamida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini kengaytish, ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarish imkoniyati tug‘iladi. 7-sinfda “Bog‘lovchi” mavzusi o‘tilayotganda o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu asosida matn tuzish topshiriqlari beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zi tahsil olayotgan maktabda, mahallasida yoki tumanda ilm-fan, san’at va sport sohasida ma’lum bir yutuqlarga erishayotgan kishilardan intervyu olib, ular faoliyatini yoritib kelish vazifasini tushuntiradi. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchida ham fanga qiziqish ortadi, ham savodxonlik darajasi o‘sadi, ham o‘quvchidagi qobiliyat aniqlanadi. Eng asosiysi, bolada o‘zi istiqomat qilayotgan maskan va yurtdoshlardan faxrlanish tuyg‘usi kuchayadi.

“Kesimni tikla” o‘yini. O‘yinning mazmuni: o‘qituvchi yoki o‘quvchilar kesimi tushirib qoldirilgan biron gap aytadi. O‘yinga qatnashayotgan boshqa o‘quvchi gap mazmunidan kelib chiqib kesimni tiklaydi. *Masalan: Nodir uning oldida (dovdirab qoldi, mulzam bo‘ldi, qizarib ketdi, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi va h.k.)*

“Charxpalak usuli”. Ushbu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, 8-sinfda “Uyushiq bo‘lakli gaplar” mavzusini mustahkamlashda o‘quvchilar uch guruhga biriktirilgach, har bir guruhga bir donadan oq qog‘oz tarqatiladi. Guruhlar o‘zlariga yoqqan mavzuni tanlab, shu sarlavha ostida matn tuzadilar. Har bir o‘quvchi mavzuni yoritib beruvchi uyushuq bo‘laklar ishtirok etgan bittadan gap tuzish imkoniyatiga ega bo‘ladi va tuzilgan har bir gap oldindagi gap bilan mantiqiy bog‘lanishi zarurligi eslatib o‘tiladi. Bu usul yordamida o‘zaro oshkoralik, mustaqil va

mantiqiy fikrlash malakalarini hosil qilish bilan birga ularning yozma savodxonligini rivojlantirishga erishiladi.

Tipografiya. Uzun so‘zdan foydalangan holda boshqa yangi so‘zlar tuzish. Kim ko‘p so‘z tuzsa, shu g‘olib hisoblanadi. O‘yin murakkablashishi mumkin. O‘yin jarayonida faqat ikki, uch yoki to‘rt bo‘g‘indan tuzilgan so‘zlargina hisobga olinadi.

Yuqoridagilardan fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda axborotlar oqimi kuchaygan bir davrda o‘quvchilarning bilim olishiga bo‘lgan qiziqishi birmuncha susaygandek. Ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini orttirish uchun o‘qituvchi ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ta’lim jarayoniga yangi ta’limiy texnologiyalarni tatbiq etishdan maqsad ham o‘quvchilarning faolligini orttirishdir. Interfaol usullar bola shaxsiyatining barcha tomonlarini shakllantiradi, uning ruhiyatida sezilarli darajada o‘zgarishlar sodir etadi.

REFERENCES

1. Saidov M., Achilova N. Matn lingvistikasi. Chimkent, 2012.
2. G‘ulomov A. Ijodiy matn. – T., 1996.
3. Turg'anbaevna, A. G. (2024). Qoraqalpoq tili va adabiyoti darslarida interfaol usullarning ahamiyati. *Economics, management, and digital innovation in education: contemporary trends and approaches*, *1*(2), 3-5.
4. Shabbazova, D. R. (2023). Ona tili va o’qish savodxonligi darslarida innovatsion yondashish texnologiyasini takomillashtirish. *Conferencea*, 1-9.
5. Erkaboyeva, N., & Usmonboyeva, M. (2020). Pedagogik mahorat. *Sxema va rasmlarda. Metodik qo ‘llanma*.
6. Nizamiddinovna, N. N. (2022). DIALOGIK O'ZARO TA'SIRDA MATN VA NUTQ. *Journal of new century innovations*, *17*(2), 111-116.
7. Dewey, J. (1986, September). Experience and education. In *The educational forum* (Vol. 50, No. 3, pp. 241-252). Taylor & Francis Group.